



## ANDIJON VILOYATI SANOATI VA ISHLAB CHIQUARISH STATISTIKASI

**Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyati iqtisodiyotida sanoat klasterlarining o'рни va barcha turdagi sanoati klasterlashtirishning ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga yangi statistic malumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Mahalliyashtirish, infratuzilma, investisiya, eksport organi, iqtisodiyot, elektr-energetika, transport sanoati, tikuv, sanoat ishlab chiqarishi.

**Kirish:** Sanoat ob'ektlari turli omillar ta'sirida hududlarda joylashgan. Sanoat ishlab chiqarishining uzluksizligi va kelajakdagi rivojlanishi mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Respublika hududida ishlab chiqarish sanoati, energiya resurslarining mavjudligi va transportning tranzit xususiyati og'ir sanoatning barqaror rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Farg'ona vodiysida bu jihatlar qisman yo'qligi sababli viloyatning boshqa imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism:** Shu sababli Andijon viloyatida yengil sanoat klasterlarini tashkil etish jahon bozoriga chiqishning eng maqbul yo'lidir. Yengil sanoat klasterlarini tashkil etish mehnat resurslari yetarli bo'lgan hududlarda yaxshi samara beradi. Hozirgi vaqtda hududiy yengil sanoatning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi qator muammolar mavjud:

- katta kuchga ega bo'lish uchun tizimga zarar yetkazmasdan tejamkor mahsulotlar yaratishning o'zi yetarli emas va bu tizimli siyosatni amalga oshirishni talab qiladi;

- zamonaviy boshqaruv tizimining keng joriy etilmaganligi sababli korxonalarining sharoitga moslashuvining pastligi va zamon talablariga javob bermasligi;

- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, xomashyo va ishlab chiqarish resurslarining adolatsiz joylashtirilganligi;

- kadrlar tayyorlash bugungi sanoat korxonalarini talablari darajasida emas.

Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar-mart) Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 10 165,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 141,0 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,9 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 38,6 % ga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 9,8 % ga o'sish kuzatildi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 7,1 % ga va Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning 3,1 % o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 947,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 47 697 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 159,8 % ga ko'paygan), 3,7 ming tonna neft (86,6 %), yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. va 2 813,0 tonna Tozalanmagan paxta yog'i (183,2 %), 15 356,5 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (70,2 %), 2 751,6 ming. litr 80 % dan etil spirti (68,6 %), 9,8 tonna Milliy non (yopgan non) (61,6 %) kamayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 159,8 % ga ko'paydi. Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 19 192 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 151,3 %), 6 572 dona "Nexia T-250" (94,5 %), 19 439 dona "Lacetti-Gentra" (231,4 %), 2 494 dona "Spark" (138,6 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llabquvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 432,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 157,8 % ga ko'paygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 73,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021-yil yanvar-mart oyida 0,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to'g'ri kelib, 75,4 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 4,8 % ni, Paxtaobod tumani 2,3 % ni, Xo'jaobod tumanida 4,1 % ni hamda Baliqchi tumani 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab





chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat (157,8 %) ga ko'paygan. Yuqori darajada o'sish ko'rsatkichi Asaka (182,1 %), Ulug'nor (100,5 %), Paxtaobod (217,5 %), Qo'rg'ontepa (100,8 %), Baliqchi (109,2 %), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (101,1 %) ni qayd etildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2022- yilning yanvar-mart oyida Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 581,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,6 % ni tashkil etdi.

**Xulosa:** yengil sanoat klasterlarini shakllantirish Farg'ona vodiysi, Tzolaversa, Andijon viloyati uchun juda muhimdir. Sanoat va qishloq xo'jaligini yangi bosqichga ko'tarish, aholi bandligini ta'minlash va ularning moddiy farovonligini oshirish, hududning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmasini shakllantirish, tejamkor tayyor go'sht mahsulotlarini yaratish, zamonaviy boshqaruv tizimini tez joriy etish, eksport hajmini oshirish. mintaqaning salohiyati va uni jahon bozoriga eksport qilish muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shadmanov, K. B., Davlatova, M. H., Ostonova, S. N., & Radjabova, A. T. (2020). ENGLISH RENAISSANCE: TRANSFORMATION OF 61 PHILOSOPHY UNDERSTANDING AS A FACTOR OF INFORMATION CULTURE DEVELOPMENT OF THE EPOCH. *Cross-Cultural Studies: Education and Science*, 5(1), 61-67.
2. Шадманов, К. (2015). *Английская духовность и язык*. Дюссельдорф: Изд-во Lambert, 264.
3. Badriddinovich, S. K. (2019). Sadullaev Denis Bakhtierovich From the history of the formation of the system of basic concepts of English philosophy. *Science and education today*, 10, 45.
4. Shadmanov, K. B. (2015). *English spirituality and language*. Dusseldorf: Lambert Publishing House, 264.
5. Шадманов, К. Б. (2003). Особенности английской философской мысли и лексики XIV-XVII вв. Т.: ТФИ, 66.
6. Shadmanov, K. B. (2020). On the Linguo-Philosophical Nature of Socio-Ethical Vocabulary. *Skase Journal of Literary and Cultural Studies (SJLCS)*, 2(1), 69-74.
7. Шадманов, К. (2022). НОВАЯ ГЛОБАЛЬНАЯ РЕАЛЬНОСТЬ В АСПЕКТЕ КУЛЬТУРНО-ФИЛОСОФСКОЙ КАРТИНЫ МИРА СИСТЕМЫ ВОСТОК-ЗАПАДИ. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 2(7), 64-66.
8. Badriddinovich, S. K., & Bakhtiyorovich, S. D. (2021). STRUCTURAL FEATURES OF TERMS IN ENGLISH. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 2(6), 48-52.



9. Shadmanov, K. (2010). English spirituality and language: The interdependence of the linguophilosophical dialogue West-East. Tashkent: Fan.–2010.
10. Shadmanov, K. B. (2019). Formation of new integral world outlook and English Renaissance philosophy of language: problems of comprehension of semiotic reality. *Cross-Cultural Studies: Education and Science*, (2), 72-81.
11. Shadmanov, K. (2003). Sovereign Uzbekistan and Issues of Philosophical Terminology. In *XXI World Congress of Philosophy. Abstracts*. Istanbul, Turkey (p. 358).
12. Бычко, И. В., & Шадманов, К. (1984). Методологический анализ историко-философского знания/И. Бычко, А. Бычко, И. Быстрицкий.–2004.
13. Shadmanov, K. B., Baratova, M., Kurbanova, G., Shodiev, S., & Khamraeva, R. (2018). Succession and Correlation of Ancient Greek, IX-XII Centuries. *Central Asian and XIV-XVI Centuries European Philosophical Thought. Utopía y Praxis Latinoamericana*, 23(82), 441-445.
14. Шадманов, К. Б. (2022). О ФИЛОСОФСКОЙ КУЛЬТУРЕ И ЭРУДИЦИИ МОЛОДЕЖИ СУВЕРЕННОГО УЗБЕКИСТАНА В СВЕТЕ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 88-95.

